

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

SOG'LOM E'TIQODGA TAHDID

Ergashev Sobitjon Mansur o'g'li

Samarqand davlat chet tillari instituti

XTA yo'nalishi 2-fakultet, 3- kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada shakllanib borayotgan e'tiqod tushunchasi, yoshlarda vatanga sadoqat, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni to'g'ri shakllantirish hamda atrof muhit jamiyatga ijobiy dunyoqarashni yuzaga keltirish masalalari, uning mazmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, milliy qadriyat, mafkura, e'tiqodsizlik, Qur'on zardushtiylik, avesto, ommaviy axborot vositalari, sog'lom e'tiqod, ekstremizm va terrorizm, jaholatga qarshi ma'rifat, din.

KIRISH

Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni, tanlagan yo'li kasbi-kori va e'tiqodiga sadoqatni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir. Shaxs ma'naviyati uning dunyoqarashi insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalari majmui, asosan, oilada shakllanadi. Shu ma'noda yoshlar tarbiyasi hayotiy zarur masaladir. Bu borada muhtaram prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek "bugungi murakkab ma'naviy -mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'siri o'rganish, milliy manfaatlarimizni, hayot tarzimizga zid bo'lgan ma'naviyat, madaniyat bayrog'i ostida kirib kelayotgan zararli g'oyalar va tahdidlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi."

METODOLOGIYA

E'tiqodning mohiyatini tushunishda, uning psixologik, falsafiy talqinlari muhim ahamiyatga ega. E'tiqod muayyan g'oya, dunyoqarashga his-hayajonli yondashuv



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ma'nosida iymonga yaqin turadi. Ammo e'tiqod tushunchasida faqat ijobiy jihatlarni ko'rishgina emas, balki, ijobiy va salbiy e'tiqod shakllari o'rtasida yana bir ma'naviy-ruhiy e'tiqodsizlikning ham mavjudligini ta'kidlashimiz lozim. Shundan kelib chiqqan holda e'tiqod tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, "e'tiqod bu – shaxsni o'z qadryatlari tizimidan kelib chiqib harakatga qo'zg'atadigan anglangan ehtiyoj". E'tiqod ishonch bilan qarash, til va dil bilan iqrar qilish shaklida ham talqin qilinadi. Qu'ronda: "inson mukarram zot" degan oyat bor. uning to'liq mazmuni quyidagicha: "Biz inson zotini mukarram qilib taratdik va uni yer yuzida, suvda pok narsalardan rizqlantirdik, yerda, suvda yuradigan qilib vaqtlarini yaratib berdik va o'zimiz ham qilgan ko'pgina narsalarimizdan afzal qilib qo'ydik." E'tiqodning ma'nosi arabchadan olingan "ishonch, iymon va amin bo'lish" degan ma'nolarni anglatadi. E'tiqod inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilimlar, g'oya va tasavvurlar ifodasi bo'lgan tushuncha. E'tiqod inson ning voyaga yetish jarayonida shakllanadi. Bilim va g'oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o'zlashtirib olingandagina e'tiqodga aylanadi. Ming afsuski adabiyotlarda sog'lom e'tiqod tushunchasining ilmiy ta'rifi hali hanuz ishlab chiqilmagan. Bizningcha milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga tayanadigan, taraqqiyotga yo'naltirilgan ezgu va bunyodkor g'oyalarga ishonchga asoslangan e'tiqod shakliga – sog'lom e'tiqod shakli deyilardi. Sog'lom e'tiqodni shakllantirishning nazariy masalalarini ko'rib chiqish asrlar davomida shakllangan islom sinida e'tiqod tarbiyasining mazmuniga alohida to'xtalish joizdir. Islom dini tarqala boshlagach, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy faoliyatini qamrab oluvchi axloqiy qonunlar majmuasini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ilqdi. Buning uchun Qu'ron va sunna asos qilib olindi, natijada musulmonlarning moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga solib turuvchi tarbiya tizimi vujudga keldi. Shuningdek islom ta'limoti, milliy tarbiya tizimiga yangi mazmun olib kirdi va bu borada qu'ron karimda ota-ona, farzandlik burchi va vatanparvarlik haqidagi suralari alohida pedagogik ahamiyatga egadir. Yoshlarni sog'lom e'tiqodli qilib tarbiyalash vazifasi hamma vaqt jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelgan va u har bir davrda zamon talablaridan kelib chiqib hal qilingan. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni xohlar ekanmiz, bu borada to'plangan boy tajribaga murojaat qilishimiz shart. Bu borada zardushtiylik ta'limotiga nazar solsak, ularning muqaddas kitobi bo'lmish Avestoda shunday



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

fikrlar keltirilgan :”ezgu niyat, ezgu so’z va ezgu amal ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g’oyasi “ sifatida talqin etilgani bunga yaqqol misol bo’la oladi. Sobiq sho’rolar davrida insonlar e’tiqodi sinfiy partiyaviy iskanjalar orasida tutilgan bo’lsa istiqlol tufayli yurtimizda e’tiqod erkinligi qonuniy asosda ta’minlandi . O’zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi Qonuni bu boradagi erkinlik kafolatiga aylandi . Hozirgi kunda mamlakatimizda turli dinlarga e’tiqod qiluvchi fuqaolarning o’z urodatlariga amal qilishlari uchun barcha shart- sharoit mavjud. E’tiqod tarbiyasi , muayyan fazilatlarga tayanishi tufayli yoshlarga yaxshi- yomon sifatlar , ularning namoyon bo’lishi , ularning namoyon bo’lishi haqida batafsil bilimlar berishga asoslanadi va bu orqali g’oyaviy tarbiyaning eng yaxshi an’alarini tiklashapedagogikaid xizmatning qiladi.

Inson o’zi yashayotgan jamiyat laring faol ishtirokchisi ekan , uning faoliyatini, muayyan g’oyalarga asoslangan e’tiqod , ishonch boshqaradi . Shu sababli e’tiqod tarbiyasi shaxs hayotining bolalik chog’idan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Inson umrining biz o’rganayotgan -o’smirlilik davri o’zining beqarorligi bilan boshqa yosh davrlarida ajralib turadi . Bu davrda ayniqsa o’smirlar ongiga milliy g’oya va mafkurani singdirish, sog’lom e’tiqodni shakllantirish mahalla , maktab , ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, radio , televideniya , Internet) ,”Kamolot” yoshlar tashkiloti , xotin-qizlar qo’mitalari , nodavlat tashkilotlari hamda din, urd- odat ,marosimlar orqali olib boriladi.O’smirlarda sog’lom e’tiqodning shakllanishida tengdosh , sinfdosh,yangi ortirilgan o’rtoqlarning ta’siri sezilarli bo’ladi E’tiqod bolalarning o’zlariga nisbatan baholi munosabatlarida ham ko’rinadi.

O’sib borayotgan shaxsning sog’lom e’tiqodini shakllantirish muammosi ko’pqirrali bo’lgani sababli , uni yoh yosh psixalogiyasi sotsiologiya milliy istiqlol g’oyasi, dinshunoslik , pedagogika, ma’naviyat asoslari falsafa kabi turli fanlar o’rganib kelmoqda .O’zbek pedagogikasida sog’lom e’tiqodli shaxsni shakllantirish vazifasini hal qilish bo’yicha izlanishlar olib borilmoqda

Sog’lom e’tiqodning targ’ib qilinishi va shakllanishida madaniyat va uning tarkibiy qismlari -ilmu fan ma’rifat ,adabiyot ,san’at , din axloq va an’analar mazmunidagi eng uzgu , xalqchil fikr, g’oyalar saralanadi, ular umumlashib , uyg’unlashib sog’lom e’tiqodning rivojlanishi uchun poydevor vazifasini o’taydi. Din-kishilarni iymon e’tiqodli , insof-diyonatli bo’lishga chorlovchi muhim ma;naviy omillrdan biridir.Shu bois har bir dinning asl mohiyatiga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tayangan holda yoshlar ongida sog'lom e'tiqodni shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim .

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm jahon xalqlari uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Ayniqsa, ularning din niqobida xalqlar tinchligi va osoyishtaligiga rahna solayotgani har qanday insonni tashvishlantiradi. Bu ana shunday nopok Bugun ekstremizm va terrorizm jahon xalqlari uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Ayniqsa, ularning din niqobida xalqlar tinchligi va osoyishtaligiga rahna solishi har qanday hvishlantiradi. Bu ana shunday nopok kimsalar va guruhlarning tarbiyaviy maqsadlari harakat turlari va uslublari bilan bog'liq masalalarning ilmiy jihatdan tahlil qilinishini taqozo etmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2018 yil 16 aprelda qabul qilingan «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonda ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq bir qator vazifalar belgilab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jumladan, "Jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish, islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish, dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadigan buzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish, jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish, jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish, diniy-ma'rifiy tashkilotlarning moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, soha vakillari mehnatini munosib rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish bo'yicha barcha zarur choralar ko'rilmoqda.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda yoshlarimiz o'rtasida sog'lom e'tiqodning shakllanganlik darajasi davr xususiyati inobatga oladigan bo'lsak, yetarli emasligini ko'rishimiz mumkin. Davr bizdan tezkorlikni va sifatni talab qilar ekan, bu jarayon bevosita o'smirlarimiz ruhiyatiga ham bizni tizimli, izchillik va tezkorlik bilan ish yuritishni talab etmoqda. O'smirlarda din haqida holis bilimlarning shakllantirilishi dinning mohiyati va jamiyat hayotidagi o'rni, vazifalari to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlarini yanada chuqurlashtiradi. O'zbekistonda yashovchi turli millatga mansub, turfa e'tiqoddagi fuqarolar o'rtasidagi bag'rikenglik va do'stlik an'analarni mustahkamlash sog'lom e'tiqod shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O'zbekiston, 1997
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash — davr talabi” mavzusida anjumandagi nutqi.
4. Tosh DAUning “Agranom” gazetasi 767 soni
5. uz internet shari
6. O'zbekiston Respublikasi Bandlikka va Mehnat munosabatlari vazirligi internet nashri.

